



Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 17 946 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil 1-oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1-oktabr holatiga, birlik
Navoiy shahar	4 252	4 452
Zarafshon shahar	1 238	1 218
G'ozg'on shahar	416	418
Konimex tumani	920	794
Qiziltepa tumani	2 590	2 437
Navbahor tumani	1 955	1 738
Karmana tumani	2 866	3 032
Nurota tumani	1 235	1 162
Tomdi tumani	495	364
Uchquduq tumani	721	598
Xatirchi tumani	2 141	1 733

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-sentabrda 2 218 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-sentabda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 754 ta, sanoatda 360 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 325 ta, boshqa xizmatlarda 233 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 754 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 325 ta, sanoatda 360 ta hamda Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 275 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Navoiy shahar	561	689
Zarafshon shahar	149	169
G'ozg'on shahar	70	57
Konimex tumani	249	67
Qiziltepa tumani	267	233
Navbahor tumani	257	166
Karmana tumani	312	452
Nurota tumani	110	108
Tomdi tumani	88	29
Uchquduq tumani	99	55
Xatirchi tumani	236	193

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-sentabrda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 22,4% ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 3,1 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi


2025-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,2 %, qurilishda – 69,9 %, xizmatlar sohasida – 55,7 % va sanoatda – 8,9,% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 186,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 8,9 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahri (100,0 %), Uchquduq tumani (99,2 %), Tomdi tumani (98,5 %), Zarafshon shahri (98,0 %) va Qiziltepa (94,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 330,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 69,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %) va Navbahor tumani (93,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 17 548,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 53,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 182,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurota tumani (98,7 %), G'ozg'on shahri (95,0%), Qiziltepa (86,6 %), va Zarafshon shahri (85,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 17 028,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 98,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,9 %), G'ozg'on shahri (99,7%) va hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 10 586,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uchquduq tumanida (99,5 %), Tomdi tumanida (99,2 %), Qiziltepa tumanida (98,5 %) va G'ozg'on shahar (98,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 9 901,8 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 55,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Navoiy shahrida (91,4 %), Tomdi tumanida (90,2 %), Nurota tumanida (85,5 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 46,2 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 4,7 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, Qiziltepa tumani, G'ozg'on shahar, Konimex tumanlari 100,0 % va Zarafshon shahrida 95,7 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 129,4 million AQSH dollarini yoki jami importning 41,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, G'ozg'on shaharlari, 100 % Qiziltepa tumanida 99,8 %,ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar- sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 9,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar- sentabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 41,8% ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar- sentabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,3 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrda 51,4% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrda esa 54,0 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-sentabrga nisbatan 2,6 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrda 33,8 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrda 41,5 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabrda 3,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabrga kelib, bu ko'rsatkich 4,5 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrda 54,2 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrda 57,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-sentabrda 41,4 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabrda 42,0 % yoki 0,6 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-sentabrda 2,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-sentabrga kelib, bu ko'rsatkich 0,9 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida 64,2 % ni, savdo sohasida 61,0 % ni va xizmatlar sohasida 59,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda, 42,0 % ni, savdo sohasida 36,5 % ni va xizmatlar 36,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda 10,1 % ni, qurilish sohasida 8,2 % ni va xizmatlar 3,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>



Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

M.Uzoqov
79 223-57-61

Manzil:

210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
